

SURXONTONGI

2026-yil
25-fevral
(chorshanba)
8-son
(17 992)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi

INSON QADRI



QALBGA TASKIN, HAYOTGA ISHONCH

Muqaddas Ramazon oyi – bag'rikenglik, sabr-qanoat va saxovat timsoli. Bu oyda inson qalbi poklanib, mehr-muruvvat tuyg'ulari yanada yuksaladi. Jamiyatda o'zaro ko'mak, xayr-u ehson, ehtiyojmandlardan xabar olish kabi ezgu qadriyatlar mustahkamlanadi.

Ana shunday savobli kunlarda viloyatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududda Ramazon oyi davomida qariyb 15 ming kam ta'minlangan oila oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi belgilangan. Ayni kungacha 8 290 oila muqaddas oying mehr-muruvvatidan bahramand

bo'ldi. Yordamlar manzilli va shaffof tarzda yetkazilayotgani alohida e'tiborga molik.

Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Qumqo'rg'on tumani studiyasi orqali o'tkazgan navbatdagi onlayn ommaviy qabulda voha ahlini muborak oy bilan qutlar ekan, mamlakatimizda ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidladi.



Qabul jarayonida markaziy va hududiy studiyalar orqali 142 nafar fuqaroning 165 ta murojaati tinglandi. Har bir masala qonunchilikda belgilangan tartibda, aniq muddatlar asosida ko'rib chiqilishi uchun mas'ullarga

topshiriqlar berilib, ijrosi qat'iy nazoratga olindi. Bu esa fuqarolar murojaatlari ortida turgan hayotiy muammolarga befarq qaralmayotganini ko'rsatadi.

Ommaviy qabul yakunida tuman va shahar

hokimlari tomonidan uch mingdan ortiq kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan hamda yakka yolg'iz istiqomat qiluvchi keksalarga oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi. Qabulda ishtirok eta olmagan, uy sharoitida parvarishlanayotgan keksalar va nogironligi bo'lgan fuqarolarning xonadonlariga esa yordamlar bevosita yetkazib berilmoqda.

Shuningdek, Ramazon munosabati bilan viloyatda 70 mingga yaqin oilaga 1 million 500 ming so'mdan bir martalik moddiy yordam ajratilishi rejalashtirilgan. Bu mablag'lar ehtiyojmand oilalarning kundalik xarajatlarini yengillashtirish, ularning turmush barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Amalga oshirilayotgan bunday xayrli tashabbuslar Ramazon oying asl mohiyatini – inson qadriini ulug'lash, mehr-oqibatni mustahkamlash, saxovat ko'rsatish fazilatlarini amalga namoyon etmoqda. Ezgu niyat bilan ko'rsatilayotgan har bir ko'mak, har bir mehr ulushi ehtiyojmand oilalar qalbiga yorug'lik olib kirib, og'irini yengil qilmoqda. Balki bu yordamlar moddiy jihatdan ulkan bo'lmas, ammo ular inson qalbiga taskin, ertangi kunga ishonch va jamiyatda birdamlik tuyg'usini baxsh etayotgani bilan ahamiyatli.

“Surxon tongi”

VOHA XABARLARI

ANGOR TUMANINING M39 avtomagistral yo'li yoqasida “Yashil makon” doirasida keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish ishlari boshlandi. Maxsus texnikalar jalb etilib, ko'chat ekish ishlari qizg'in pallaga ko'chdi.

JANUBI-G'ARBIY MAXSUS HARBIY OKRUG tasarrufidagi qo'mondonlikka qarashli harbiy qismda yangi binolar – zamonaviy o'quv xonalari, ilg'or trenajyorlar bilan jihozlangan mashg'ulot maydonlari, qulay yotoqxonalar binolari hamda boshqaruv va shtab xonalari foydalanishga topshirildi. Ushbu binolar zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangan.

OLTINSOY TUMANINING “Gulobod” mahallasida aholi tashabbusi bilan hashar yo'li orqali 18 metr uzunlikdagi yangi ko'priq qurilishi olib borilmoqda. Mazkur loyiha mahalla ichki yo'llaridagi harakat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning qatnovini yengillashtirish hamda transport vositalari uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

UZUN TUMANIDA aholi va dehqon xo'jaliklarida zamonaviy bog'lar barpo etishni qo'llab-quvvatlash maqsadida xurmo ko'chatlarini tarqatish ishlari boshlandi. Ushbu tashabbus aholi daromadini oshirish, tomorqalardan samarali foydalanish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot yetishtirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan.

Shu ma'noda, Denov tumanining “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman” maqomiga sazovor bo'lishi hudud hayotida yangi bosqichni boshlab berdi.

keltirish uchun sezilarli mablag' yo'naltirilayotgani Denovning turistik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan muhim qadamdir.


Denovning ko'hna tarixi va boy me'moriy merosi bugungi islohotlar markazida turibdi. “Said Otaliq” madrasasi hamda “Denov qal'asi”

Rivojlanish faqat markaz bilan cheklanmaydi. Umumiy qiymati 213 milliard so'mlik loyihalar doirasida ichimlik suvi, elektr ta'minoti, ichki yo'llar va sug'orish tizimlarini yaxshilash ishlari amalga oshiriladi. O'nlab mahallalarda infratuzilmaning yaxshilanishi

modernizatsiya qilish bo'yicha pilot loyiha boshlanganining o'ziyiqq denovliklar kelajakni o'yab harakat qilayotganini ko'rsatadi. Energiya tejovchi uskunalarini keng joriy etish, tungi yoritish tizimlarini modernizatsiya qilish va

DENOV—

YANGI O'ZBEKISTON QIYOFASIDA



Davlatimiz rahbarining 2025-yil 8-oktyabrdagi qarori asosida mamlakatimizning 33 ta hududiga “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman” maqomi berilishi belgilandi. Ushbu ro'yxatda Denovning ham borligi bejiz emas. Janubiy vohaning eng yirik tumanlaridan biri bo'lgan hududda 98 ta mahallada 440 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bu ko'rsatkichning o'ziyiqq hududni rivojlantirish masalasiga strategik yondashuv zarurligini anglatadi.

Tumanni jadal rivojlantirish uchun ajratilayotgan qo'shimcha 30 milliard so'm mablag' infratuzilma, turizm va xizmat ko'rsatish sohalari yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Xususan, tarixiy markaz hisoblangan Bobur mahallasini zamonaviy qiyofaga

OBOD MANZILLAR



oralig'idagi hududni sharqona ruhdagi zamonaviy turizm ko'chasiga aylantirish rejalashtirilgan. Ushbu maskanda savdo va maishiy xizmat obyektlari tarixiy arxitektura uslubida barpo etilib, hudud to'liq obodonlashtiriladi.

Rekonstruksiya ishlari olib borilayotgan Mustaqillik ko'chasi esa kelajakda tun-u kun xizmat ko'rsatadigan turizm markaziga aylanadi. Bu nafaqat sayyohlar oqimini ko'paytiradi, balki yuzlab yangi ish o'rinlari yaratilishiga ham zamin yaratadi.

Mamlakatimizda aholi farovonligini ta'minlash, tadbirkorlikni keng qo'llab-quvvatlash va hududlarni kompleks rivojlantirish ustuvor vazifaga aylangan. Ayniqsa, chekka hududlarda shahar infratuzilmasini shakllantirish, zamonaviy xizmatlar ulushini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bugungi islohotlarning asosiy yo'nalishidir.

aholining kundalik turmush sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Biznes infratuzilmasini rivojlantirish hisobiga 1 170 dan ortiq yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilishi, mavjud minglab korxonalar faoliyatining kengaytirilishi rejalashtirilgan. Bu esa tumanni bosqichma-bosqich ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirishga xizmat qiladi.

Denovda mavjud xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish ham ustuvor vazifalardan. Sanoat zonalarini quvvatini oshirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish kengayadi. Shu bilan birga, energiya tejovkor texnologiyalarni joriy etish va “yashil” sanoat loyihalarini amalga oshirish rejalarini hududni barqaror rivojlantirish tamoyillariga mos tarzda yangilashni ko'zda tutadi. Ijtimoiy muassasalardan birini “Nol energiya sarfli binolar” konsepsiyasi asosida

energiya auditini yo'lga qo'yish esa uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Bugun Denovda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar oddiy qurilish yoki obodonlashtirish ishlari emas. Bu — hududni yangicha iqtisodiy model asosida rivojlantirish, odamlar hayot sifatini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va tarixiy merosni asrab-avaylashga qaratilgan tizimli siyosat natijasidir. “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman” maqomi Denov uchun shunchaki nom emas, balki mas'uliyat va imkoniyatdir. Ushbu jarayonlar izchil davom etsa, janubiy vohaning bu yirik hududi yaqin yillarda nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida ham namunal tumanlardan biriga aylanishiga shubha qilmasak ham bo'ladi.

Ibrohim YOQUBOV,
Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati



TASHABBUS

KITOBGA OSHNO HARBIYLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yoshlar va turli soha vakillari o'rtasida mutolaa an'analarini keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu boradagi ezgu tashabbuslar harbiy tizimda ham izchil davom etmoqda. Termiz tumanida joylashgan DXX Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismlarning birida “Surxondaryo kitob olami” MCHJ bilan hamkorlikda “Kitob yarmarkasi” o'tkazildi. Ushbu yarmarka harbiy yuqori mazmunli tashkil etish, ularning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish, dunyoqarashi va nutq madaniyatini boyitishga xizmat qilishi aniq.

Yarmarkada badiiy adabiyotlar, tarixiy asarlar, ma'naviy-ma'rifiy hamda motivatsion kitoblar keng namoyish etildi. Harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan asarlarni tanlab,

mutolaa uchun xarid qilish imkoniga ega bo'ldilar. Ta'kidlanganidek, kitob mutolaasi harbiylar hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. U nafaqat bilim va tafakkurni boyitadi, balki shaxsiy intizom, mustahkam iroda, teran fikrlash va vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, harbiy xizmat sharoitida kitob ruhiy hordiq chiqarish, ma'naviy kuch olish va o'z ustida ishlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

“Kitob yarmarkasi” harbiylar ma'naviy hayotini boyitish va mutolaa madaniyatini yanada rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Olimjon ISMOILOV

SO'Z HUQUQSHUNOSIGA



Sud faqat adolatni qaror toptirish bilan cheklanib qolmasdan, jamiyat ishonchini qozonishi ham lozim. Ana shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sud muhokamasi oshkorligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida"gi qarori sud tizimida ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi.

ISHONCHNI MUSTAHKAMLOVCHI OSHKORALIK

Sud muhokamasi oshkorligi — bu sud ishlarining ochiq tarzda ko'rilishi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillarining sud jarayonlarida ishtirok etishi, shuningdek, sudlar faoliyatiga haqida axborot olish imkoniyati yaratilganidir. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Sudlar to'g'risida"gi Qonun va protsessual kodekslarda mustahkamlab qo'yilgan. Qonunchilikka ko'ra, sud muhokamasi odatda ochiq o'tkaziladi va har bir fuqaro sud jarayonida qatnashish huquqiga ega. Qarorda ta'kidlanganidek, har bir shaxs sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqiga ega. Bu huquq til, millat, jins, ijtimoiy kelib chiqish yoki boshqa belgilarga qarab cheklanmaydi. Fuqarolar sudlarga og'zaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qilib, kerakli ma'lumotni so'rashlari mumkin. Sudlar esa qonunda belgilangan muddatlarda javob berishlari shart. Masalan, fuqaro sud majlisining vaqti va joyi, ish qaysi bosqichda ekanligi yoki qabul qilingan qaror haqida ma'lumot olishi mumkin. Agar ma'lumot rasmiy

veb-saytda yoki ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan bo'lsa, sud manbani ko'rsatish bilan cheklanishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, barcha ishlar ham ochiq ko'rilmaydi. Qonunchilikda belgilangan ayrim holatlarda ish yopiq sud majlisida ko'rilishi mumkin. Ya'ni davlat sirlari bilan bog'liq ishlar, tijorat sirini saqlash zarur bo'lgan holatlar, shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlar hamda voyaga yetmagan shaxslar manfaatiga daxldor ishlar. Bunday hollarda sud asoslantirilgan ajrim chiqaradi va nima sababdan ish yopiq tarzda ko'rilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ish yopiq tarzda ko'rilayotgan haqidagi ma'lumot ochiq bo'lishi lozim. Yopiq sud majlisida audio va videoyozuvga yo'l qo'yilmaydi hamda bunday ish bo'yicha ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilmaydi. Ochiq sud majlislarida ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etish huquqiga ega. Ular foto, video va audiodiyozuvni sud raisining ruxsati bilan amalga oshirishlari mumkin. Biroq ommaviy axborot vositalari muayyan ish bo'yicha

sud qarorini oldindan bashorat qilishga yoki sudga bosim o'tkazishga haqli emas. Sudiyalar esa qaror qonuniy kuchga kirmaguncha intervyu berish yoki ommaviy bayonot qilish huquqiga ega emas. Bu talablar sud mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan. Qonunchilikka ko'ra, sud qarorlari, odatda, oshkora e'lon qilinadi. Faqat qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda — masalan, farzandlikka olish kabi ishlar bo'yicha — qaror oshkora e'lon qilinmasligi mumkin. Qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari rasmiy veb-saytlarda joylashtiriladi. Bunda davlat siri yoki boshqa qonun bilan qo'riqlanadigan ma'lumotlar matndan chiqarib tashlanadi. Sud muhokamasi oshkorligi — odil sudlovning muhim kafolati, fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmi va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash vositasidir. Mazkur qaror sud tizimi faoliyatining yanada shaffof, ochiq va xalqqa yaqin bo'lishiga xizmat qiladi. Ochiq va adolatli sud — bu kuchli davlat va ishonchli jamiyat po'ydevoridir.

Nilufar BOBOMURATOVA, viloyat ma'muriy sudi sudyasi

TARAQQIYOTNING MA'NAVIY TAYANCHI

Diniy bag'rikenglik — bu shunchaki turli din vakillarining yonma-yon yashashi emas, balki o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan ijtimoiy muhitdir. U inson huquqlarini ta'minlash, vijdon erkinligini kafolatlash va jamiyatda tinchlikni mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir. O'zbekiston tarixan turli din va madaniyatlar chorhasida joylashgan hudud sifatida shakllangan.

Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlar asrlar davomida turli e'tiqod va millat vakillarini birlashtirib kelgan. Bu tarixiy tajriba bugungi kunda ham jamiyat barqarorligining muhim asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamizda vijdon erkinligi va barcha fuqarolarning tengligi kafolatlangan. Davlatning dunyoviylik tamoyili esa diniy qarashlardan qat'i nazar, har bir shaxsga teng munosabatni anglatadi. Bu — e'tiqod erkinligi bilan birga jamiyat barqarorligini ta'minlashning muvozanatli modeli demakdir. So'nggi yillarda bu siyosat yangi mazmun bilan boyidi.

Prezidentimizning BMT minbarida ilgari surgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" tashabbusi xalqaro miqyosda keng qo'llab-quvvatlandi. Ushbu yondashuv jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, diniy erkinlikni himoya qilish va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Mamlakat ichida ham ma'rifiy asosdagi islohotlar amalga oshirildi. Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi kabi ilmiy-ma'rifiy muassasalar tashkil etilib, sog'lom diniy tafakkurni

rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu tashabbuslar diniy bilimni chuqurlashtirish orqali radikalizm va mutaassiblikning oldini olishga qaratilgan. Bugungi kunda mamlakatda 16 ta konfessiyaga mansub minglab diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda, 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv hayot kechirmoqda. Turli tillarda ta'lim va axborot olish imkoniyatlari yaratilgani ham millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, viloyatimizda turli millat va din vakillari o'zaro hurmat asosida yashayotgani bag'rikenglik siyosatining amaliy ifodasi-

dir. Masjid va cherkovlarning yonma-yon faoliyat yuritishi jamiyatda o'zaro ishonch muhitini mustahkamlaydi. Diniy bag'rikenglik O'zbekistonda nafaqat huquqiy me'yor, balki ma'naviy qadriyat sifatida qaror topmoqda. Turli e'tiqod va qarashlarga hurmat bilan yondashish — tinchlik va totuvlikning eng mustahkam kafolatidir. Aynan shu tamoyil Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy tayanchi bo'lib xizmat qilmoqda.

Odil XUDOYQULOV, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat hududiy bo'linmasi yetakchi mutaxassisi

XALQ MANFAATI DADILLIKKA CHORLAYDI

Mazkur vazifalar joylarda, xususan, Jarqo'rg'on tumani misolida ham amaliy ifodasini topmoqda. Xalq deputatlari Jarqo'rg'on tuman Kengashi bugungi kun talablari asosida faoliyat yuritib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga munosib hissa qo'shmoqda. O'tgan yil davomida tuman Kengashi tomonidan 11 ta sessiya o'tkazilib, 171 ta masala muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi. Ijro hokimiyati organlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida 3 ta qarorda aniq tavsiya va ko'rsatmalar berildi. Deputatlar tomonidan 126 ta deputatlik so'rovi yuborilib, ularning qariyb 92 foiziga javob olindi. Aholi bilan ochiq muloqot tizimli yo'lga qo'yilgan. Deputatlar saylov okruglarida 120 ta uchrashuv o'tkazib, ko'tarilgan muammolarning 97 foizi ijobiy hal etilishiga erishildi. Fuqarolardan kelib tushgan 32 ta murojaatning aksariyati amaliy yechim topdi.

FAOLIYAT
So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hayotimizning barcha jabhalarida o'z samarasini bermoqda. Bu jarayonlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Murojaatnomasida ham alohida e'tirof etildi. Unda o'tgan davrda erishilgan natijalar sarhisob qilinib, kelgusi yil uchun 6 ta ustuvor yo'nalish belgilab berildi.

Eng muhimi, Kengash deputatlarining sa'y-harakati bilan 12 nafar fuqaro kambag'allikdan chiqarildi, 8 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi, yangi ish o'rinlari yaratildi. Talabalar kontrakt to'lovlarini qoplash, ehtiyojmand oilalarga dori-darmon va ortopedik vositalar yetkazib berish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy masalalar ham e'tibordan chetda qolmadi. Hudud infratuzilmasini yaxshilash borasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi — 14 kilometr avtomobil yo'li ta'mirlandi. Migratsiyada bo'lgan fuqarolarni vatanga qaytarish va ularni ish bilan ta'minlash masalalarida ham ijobiy natijalarga erishildi. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida Kengashning barcha qarorlari "E-Kengash" tizimi orqali e'lon qilinib, jamoatchilikka yetkazildi. Qabul qilingan yangi qonunlarning mazmun-mohiyatini aholiga

tushuntirish bo'yicha 71 ta targ'ibot tadbiri tashkil etildi. Prezident Murojaatnomasida iqtisodiy rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish va investitsiyalarni jalb qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu esa mahalliy Kengashlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, mahalliy byudjet mablag'larini samarali taqsimlash — bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Jarqo'rg'on tumani tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy Kengashlar aholi manfaatlarini ifoda etuvchi va hudud rivojini ta'minlovchi muhim institutga aylanmoqda. Izchil va mas'uliyatli faoliyat esa mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti va xalq farovonligiga xizmat qiladi.

Abdulazim SAMANOV, Xalq deputatlari Jarqo'rg'on tuman Kengashi kotibiyati mudiri

HUQUQ VA TA'JIRIBA

Ayniqsa, Konstitutsiyaning 28-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qator muhim kafolatlar mustahkamlandi. Bu normalar jinoyat prosessida shaxs huquqlarini ta'minlash, adolat mezonlarini mustahkamlash va odil sudlovni ro'yobga chiqarishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

28-moddaga ko'ra: "Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak".

Mazkur qoida aybsizlik prezumpsiyasining mantiqiy davomi hisoblanadi. Jinoyat ishi bo'yicha surishtiruvchi va tergovchi tergov harakatlari orqali, sud esa sud tergovi jarayonida dalillar to'playdi. Ayrim hollarda to'plangan dalillarni baholashda shubhalar yuzaga kelishi mumkin. Shunday vaziyatda shubha ayblov tomoniga emas, himoya foydasiga talqin etilishi shart. Shaxsni aybli deb topish uchun yetarli va ishonchli dalillar mavjud bo'lishi lozim. Aks holda, shubhali yoki yetarli bo'lmagan ma'lumotlarga asoslanib



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlariga oid normalarning bir necha baravar oshirilgani bejiz emas. Bu, avvalo, inson qadrini ulug'lash, uning sha'ni va erkinligini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini anglatadi.

SUKUT — DAXLSIZLIK KAFOLATI

shaxsni javobgarlikka tortish mumkin emas. Agar tergov jarayonida ayb e'lon qilingan bo'lsa-yu, sudda bu aybni tasdiqlovchi yetarli dalillar topilmasa, oqlov hukmi chiqariladi. Chunki "isbotlanmagan ayb — isbotlangan aybsizlikka teng" degan tamoyil amal qiladi. Bunday konstitutsiyaviy kafolatlar Ozarboyjon, Xexetiya, Gruziya, Xorvatiya, Yaponiya va Slovakiya konstitutsiyalarida ham o'z aksini topgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yana bir muhim norma belgilandi: "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin". Bu norma jinoyat prosessida isbotlash majburiyati to'liq tergov organlari zimmasida ekanini qat'iyligini belgilaydi. Jinoyatni fosh etish va aybdorni aniqlash vazifasi davlat organlariga yuklatilgan bo'lib, shaxs o'zini himoya qilish jarayonida faol ishtirok etishga majbur emas. U ushlangan vaqtdan boshlab hukm chiqarilgunga qadar

sukut saqlash huquqiga ega. Eng muhimi, sukut saqlash huquqi shaxsning erkinligi cheklangan zahoti unga tushuntirilishi shart. Bu huquq shaxsga advokati bilan maslahatlashmaguncha hech qanday ko'rsatuv bermaslik imkonini beradi va uni ehtimoliy bosim hamda majburlashdan himoya qiladi. Konstitutsiyaning 28-moddasida yana bir muhim kafolat belgilandi: "Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas". Bu qoida bir necha muhim maqsadlarga xizmat qiladi. Birinchidan, u shaxsni tekzor-qidiruv xodimlari, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan bosim o'tkazilishidan himoya qiladi. Ikkinchidan, majburan aybni tan oldirish amaliyotining oldini oladi. Uchinchidan, shaxsdan qarindoshlariga qarshi ko'rsatuv olishni taqiqlaydi. Mazkur prinsip Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktda ham mustahkamlangan. Yana bir muhim yangilik: "Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas". Huquqiy davlatda shaxsni faqat iqtisodiy ko'rsatuviga asoslanib aybdor deb topish odil sudlov tamoyillariga ziddir. Iqrorlik boshqa dalillar bilan tasdiqlanmasa, u yetarli asos bo'la olmaydi. Shuning uchun tergovchi, prokuror va sud jinoyat sodir etilganligini, aybdor shaxsni va barcha muhim holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona aniqlashi shart. Yangilangan Konstitutsiya uzoq yillar davomida jamiyatda og'riqli muammo bo'lib kelgan masalaga ham nuqta qo'ydi. 28-moddada: "Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas", deb belgilandi.

Ilgari ayrim hollarda qarindoshlaridan biri sudlangan bo'lsa, boshqa oila a'zolarining ishga qabul qilinishi yoki yuqori lavozimlarga tayinlanishi cheklangan. Bu esa adolat va shaxsiy javobgarlik prinsiplariga mutlaqo zid edi. Jinoyat uchun butun bir oila yoki avlod javobgar bo'lishi mumkin emas. Sudlanganlik muayyan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, biroq bu oqibatlar faqat sudlangan shaxsning o'ziga tegishli bo'lishi lozim. Boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga ta'sir ko'rsatishi insonparvarlik va adolat tamoyillariga ziddir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 28-moddasi inson huquqlarini himoya qilishning mustahkam konstitutsiyaviy po'ydevorini yaratdi. Bu o'zgarishlar nafaqat huquqiy tizimni takomillashtiradi, balki fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshiradi.

B. SHADIQULOV, Sho'rchi tuman prokurorining katta yordamchisi
A. QIRG'IZBOYEV, tuman prokurori yordamchisi

OGOHLIK, BILIM VA MAS'ULIYAT — ENG MUHIM HIMOYA

DOLZARB MAVZU

Bugungi kunda axborot texnologiyalari inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib keldi. Internet tarmog'i orqali muloqot qilish, onlayn to'lovlarni amalga oshirish, davlat xizmatlaridan foydalanish, savdo-sotiq qilish va ta'lim olish o'zaro aloqani yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli imkoniyatlar kengaygani sari, afsuski, kiberjinoyatlar soni ham ortib bormoqda. Shu bois, kiberxavfsizlik masalasi jamiyatning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Kiberjinoyatchilar insonlarning ishonuvchanligi va axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlari yetarli emasligidan foydalanib, turli firibgarlik harakatlarini amalga oshirmoqda. Ayniqsa, bank kartasi ma'lumotlarini aldash yo'li bilan qo'lga kiritish, soxta internet do'konlar orqali pul undirish, ijtimoiy tarmoq akkauntlarini buzish, noma'lum havolalar orqali zararli dasturlarni tarqatish holatlari ko'p uchramoqda. Ko'p hollarda jinoyatchilar o'zini bank xodimi, texnik mutaxassis yoki rasmiy tashkilot vakili sifatida tanishtirib, fuqarolardan maxfiy ma'lumotlarni so'raydi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, bugungi kunda kiberjinoyatlarining aksariyati texnik buzish orqali emas, balki psixologik ta'sir — ya'ni ijtimoiy injeneriya orqali amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilar insonni shoshirish, qo'rqitish yoki qiziqitirish orqali uning o'zi maxfiy

ma'lumotlarni oshkor qilishga erishadi. Masalan: "Kartangiz bloklanmoqda" degan qo'ng'iroqlar, "Sovrin yutdingiz" mazmunidagi xabarlar, tezkor to'lov talab qilingan holatlar... Bunday vaziyatlarda fuqarolarning ehtiyotkorligi juda muhim. Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus bilim talab etilmaydi. Shunchaki, SMS tasdiq kodlarini hech kimga aytmasslik, noma'lum havolalarga kirmasslik, parollarni murakkab va maxfiy saqlash, faqat rasmiy ilovalarni yuklab olish, antivirus dasturlaridan doimiy foydalanish, shubhali qo'ng'iroq va xabarlariga ishonmaslik kifoya. Kiberxavfsizlik faqat alohida shaxs emas, balki butun jamiyat xavfsizligi bilan bog'liq masaladir. Banklar, ta'lim muassasalari, davlat va xususiy tashkilotlarda axborot xavfsizligi talablariga qat'iyligini rioya qilish, xodimlarni muntazam o'qitish va profilaktik tushuntirish ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti insonlarga katta qulayliklar yaratmoqda. Biroq internetdan xavfsiz foydalanish madaniyati shakllanmasa, bu imkoniyatlar jiddiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir fuqaro kiberxavfsizlik qoidalarini bilishi va ularga amal qilishi zarur. Ogoqlik, bilim va mas'uliyat — kiberjinoyatlarga qarshi eng ishonchli himoyadir.

B. ABDUALIMOV, viloyat IIB ATSJQKB XPG katta inspektori, leytenant



“BILIM ILA KO'NGLING CHAROG' QILG'AY”

Alisher Navoiy o'zbek adabiyotining buyuk shoiri va mutafakkiri bo'libgina qolmay, xalqimizning ma'naviy tarbiyasiga beqiyos hissa qo'shgan ziyoli shaxs sifatida tarixda o'z o'rniga ega.

Uning asarlari nafaqat badiiy go'zallik, balki insoniy fazilatlarini rivojlantirish, qalbni poklash, axloqiy me'yor va qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Navoiy ijodi bugungi kunda ham yoshlarni tarbiyalashda, ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda va axloqiy qadriyatlarini boyitishda muhim vosita hisoblanadi.

tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ko'radi. U ilmni faqat dunyoviy manfaat uchun emas, balki inson qalbini yuksaltirish va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish uchun ishlatish zarurligini ta'kidlaydi. Masalan, uning mashhur “Xamsa” dostoni qahramonlari turli xulq-atvor va insoniy fazilatlarini namoyon etadi. “Hayrat ul-abror” asarida insonning axloqi va ruhiy pokligi, hayotiy tanlovlarining oqibati ko'rsatib beriladi. “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlari orqali insoniy muhabbat, sadoqat va fidoyilik qadriyatlarini o'quvchiga yetkaziladi. “Saddi Iskandariy” va “Sab' ai Sayyor” asarlarida esa axloqiy qarorlar, adolati hukm va donolik masalalari muhokama qilinadi. Shu jihat bilan Navoiy ijodi axloqiy tarbiya uchun beqiyos manba hisoblanadi. Allomaniy ilmiy haqidagi quyidagi misralari, ayniqsa, diqqatga sazovordir:

“Jaholatdan ilmu yiroq qilg'ay, Bilim ila ko'ngling charog' qilg'ay”.

Ushbu misralar orqali ham ko'rish mumkin, bugungi kunda Alisher Navoiy ijodi yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Uning asarlari orqali insonning xulqi va odobini shakllantirish, to'g'ri va adolati hayotga chorlash, mehr, sadoqat, insonparvarlik va vatanparvarlikni qadrlash, ilm olish va tafakkur qilish zarurligi, imyon va taqvo hayotning markazida bo'lishi lozimligini o'rganish mumkin. Navoiy ijodini zamonaviy hayotga tatbiq etish orqali yoshlar nafaqat bilimli, balki axloqiy jihatdan kamolotga yetgan shaxs sifatida tarbiyalanadi. Shu jihat bilan u ma'naviy tarbiya sohasida abadiy me'yor sifatida qadrlanadi. Shu sababli Alisher Navoiy merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega boy manbadir.

Umarali ULJAYEV, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

U haqda dunyo ahli juda “ko'p va xo'b yozgan”, jumladan, taniqli urdu adibi Qamar Rayis o'zining “Bobur shaxsiyati va she'riyati” nomli asarida shunday deydi: “Tabiat bu tog'li Farg'ona vodiysiga mislsiz husn ato etgan, Bobur uning shaydosi bo'lgan. Tabiatning mana shu so'lim go'shasida Boburning shoirona tafakkuri kurtak ochgan. Uning bog'lari, chinorlari, shakardan shirin mevalarini ta'rif qilishdan bir soniya charchamagan...”

Boburning buyukligi va xalqimizga suyuqlik nimada? Gap shundaki, u ham boshqalar qatori oddiy inson bo'lgan, lekin taqdir sinovlariga tan berib, qo'l qovush tirib o'tirmadi. Yuksak darajadagi aql-idroki, tafakkuri, sabr-toqati, matonati bilan mashaqqatli hayot yo'lini bosib o'tib, afsonaviy hind yerida buyuk Boburiylar saltanatiga asos soldi. Qaysi bir sohani olib qaramaylik, har sohada peshqadam, ildam bo'ldi. Har doim adolatni tug' qilib, muborak yalov qilib, qo'lida ko'tarib yurdi, oddiy masalalardan tortib mushkul holatlarga qadrlash, ilm olish va tafakkur qilish zarurligi, imyon va taqvo hayotning markazida bo'lishi lozimligini o'rganish mumkin. Navoiy ijodini zamonaviy hayotga tatbiq etish orqali yoshlar nafaqat bilimli, balki axloqiy jihatdan kamolotga yetgan shaxs sifatida tarbiyalanadi. Shu jihat bilan u ma'naviy tarbiya sohasida abadiy me'yor sifatida qadrlanadi. Shu sababli Alisher Navoiy merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega boy manbadir.

Umarali ULJAYEV, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

kabi chinakam insoniy tuyg'ularni o'zining qalb go'zalligi, aql-zakovati bilan uyg'unlashgan holda yuzaga chiqqan olgan chinakam insonlardan biridir.



“Bori elg'a yaxshilik qilginki, mundin yaxshi yo'q, Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik”

jumlasi Boburning bosh shiori edi. U do'st-u dushmaniga bir xilda muomalada bo'ldi, do'stning sadoqatini qadrladi, dushmaning mardligiga tan berdi. Yaqin kishilari vafosizlik qilganda ham taqdir hukmiga topshirdi, ularni tahqirlamad, sazoyi qilmadi, aksincha, Yaratgan Egam izmiga havola qildi. Shu bois, Bobur xarakterida bugungi yosh avlodga ibrat bo'lgudek jihatlar istaganicha topiladi. Uning ijodi vatanparvarlik, yurtparvarlik, xalqparvarlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik g'oyalari bilan tugal sug'orilgan. Bugungi shiddatli, tahlikali zamonda jahon ahliga o'rnak bo'lgudek fazilatlar uning xarakterida jamuljam bo'lgan edi. Janggohlarda umri o'tganiga qaramasdan, “Devon” tartib berdi, “Harb ishi”, “Mufassal”, “Mubayyan”, “Musiqqa ilmi” kabi asarlarni yaratdi,

“Xatti Boburiy”ni kashf qildi, Xoja Ahror Valiyning “Volidiyya” asarini turkiyga tarjima qildi. U hind, afg'on yerlariga qurol ko'tarib, ularni talash, parokanda qilish, dahshat solish, boylik orttirish uchun

“O'zbek xalqi tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk yurtdoshlarimiz ichida Zahiriddin Muhammad Bobur alohida o'rin tutadi. U o'zining sermazmun va barakali ijodi bilan jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolardan biridir.”

“OSOYISHE-KAM-KO'RGAN MENDEK YANA BIR BORMU?”

“Bori elg'a yaxshilik qilginki, mundin yaxshi yo'q, Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik”

emas, Yaratganning izmi bilan ularni birlashtirish, jipslashtirish, tarqoq qabilalarni yagona davlat bayrog'i ostiga to'plash maqsadida bordi. Garchi o'sha davr taqozosi bilan ona yurtini tashlab chiqib ketgan bo'lsa-da, umr bo'yi unga intilib yashadi, Vatandan uzoqqa ketishni “yuzi qoralik” deb bildi, o'zga yurtda shoh bo'lsa ham, o'zini benavo, miskin, g'ariblar qatoriga qo'shdi. Uning barcha asarlarida bu ruh ustunlik qiladi. Bobur ruboiylarining birida shunday deb yozadi:

“Ko'pdin berikim, yoru diyorum yo'qtur, Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qtur. Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla, Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur”.

Bunday haroratli, o'tli, ko'ngil isyoni ufurib turgan misralarni bitish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu kabi Vatan, ona diyor sog'inchi, ushalmas orzu-armonlar shoirning:

“G'urbat ichra, ey ko'ngil, eldin vafostarni yo'y, mehnat-u g'am ko'rgan, Osoyishe kam ko'rgan mendek yana bir bormu?”

ko'rinishidagi satrlarida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. Bugun jahonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy manzarasi tubdan o'zgarib, insoniyat ko'p qutbli dunyoga o'tayotgan bir paytda yosh avlod, umuman, millatimiz uchun Bobur kabi ibrat bo'lgudek ulug' bobolarimiz borligidan, ularning o'g'itlari, o'lmas asarlari hozirgi notinch zamonda to'g'ri yo'l topishimizda mayoq vazifasini bajarayotganidan har qancha faxrlansak, arziydi. Ayniqsa, bu holat adibning “Boburnoma” asarida katta mahorat bilan qalamga olingan. Bobur Movarounnahrda shaharlarni, ulardagi nabotot va hayvonot olamini, tarixiy shaxslarning xarakterlarini tasvirlaganda, ularga cheksiz mehru-muhabbat bilan, farzandlik tavozesi bilan yondashadi. Bobur xarakterida unga temuriylardan

shior unga madad bo'ldi. Tarix xolislikni sevadi. Bobur shaxsiga baho berganda mezon uning o'z so'zlari, tarixiy haqiqat bo'lmog'i lozim. Undan bizga meros bo'lib qolgan asarlarning guvohlik berishicha, Bobur voqea va hodisalarga real yondashgan, bir tomonlama baho bermagan, hatto gap kelganida, o'z yaqinlarining, temuriylarning ham o'z tomonlarini ayamay ochib tashlagan, g'animlarining esa ezgu ishlariga tan bergan. Bu donishmand, mard, jasur insonlargagina xos fazilat. Boburda bu fazilatning eng oliy ko'rinishi mujassam edi. Boburiylar saltanatining shakllanishi va rivojlanishida ham aynan mana shu jihat poydevor bo'lib xizmat qilgan. Bundan biz faqat o'rganishimiz kerak. Qolaversa, Bobur o'z zamonasining ilg'or fikrli, ma'rifatli kishilaridan biri sifatida yaratish, yangi binolarni, bog'-u rog'larni, saroylarni qurish

Boburni “O'n oltinchi asr bunyodkori” nomi bilan ulug'lab, u to'g'risida asar yaratgan. “Boburnoma”da uning bunyodkorligini, yaratuvchanligini tasdiqlovchi satrlarga juda ko'p duch kelamiz. Boburning yaratuvchanligi uning Farg'onadan mevali daraxt ko'chatlarini afg'on, hind yerlariga olib borib ektirishida ham ko'rinadi. Bobur yashagan davr jang-u jadallarga, to's-to'polonlarga to'la, shiddatli bir davr edi. Har bir yigit kishi chavandozlik, qilichbozlik, kamonbozlikdan boxabar bo'lishi talab etilardi. Bobur saroy tarbiyasini ko'rgan shaxs sifatida bularning barchasidan nafaqat xabardor bo'lgan, balki u o'sha davrning mard va qo'rqmas, matonatli, shijoatli jasur jangchilardan, sarkardalardan, urush taktikasini mukammal egallagan sara lashkarboshilardan biri edi. Ot minishda, qilichbozlikda, suzishda, kamon otishda unga yeng keladigan navkarlar kam bo'lgan. Bobur janjlarda toblangan,

vatanparvarlik, keng mulohazalik, mardlik va jasurlik bizga haqiqiy ibrat maktabidir. O'z taraqqiyotining Uchinchi Renessansiga qadam qo'ygan O'zbekiston xalqi uchun Boburning hayoti va ijodi haqiqiy ibrat maktabi vazifasini o'taydi desak, aslo adashmaymiz. Zero, hozirda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan Taraqqiyot strategiyasining zamirida ham Bobur kabi buyuk zotlar bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli yo'llarning achchiq saboqlari, ularning orzu-maqсадlari yetibdi. Ularga amal qilish biz uchun foydadan xoli emas. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi mana shunday sharaf va e'tiborga loyiqdir.

Abdulhay SOBIROV, filologiya fanlari doktori, professor, (Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti)

Abdulhad SHUKUROV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

SHE'RI SUVDA OQQAN SHOIR

Vohada 68 yoshli bir mashhur shoir bor edi. Iste'dodi kuchli, xotirasi esa unchalik emas. Tibbiy tilda aytganda — skleroz.

Ilhom kelsa, qayerda bo'lsa ham she'r yozaverardi, lekin yozganini qayerga qo'yganini eslab qolish — bu alohida masala. Kunlardan bir kun u ijodiy safar bilan vodiya bordi. Mehmonxonaga joylashdi, uchrashuvlar o'tkazdi, yoshlarga ma'ruza qildi, ora-orada yangi she'rlar bitdi. Ilhom bor joyda tartib bo'lmaydi-da. Bir kuni tushdan keyin mehmonxonaga qaytib, xonasiga kirdi-yu, bironidan so'ng ikkinchi qavatni titratgan baqiriq yangradi: — She'rlarim! She'rlarimni o'g'rilashibdi! Administrator yugurib kirdi. Shoir sochlari to'zg'ib, shkak-u chemodanni ag'dar-to'ntar qilib turardi. — Eng qimmat boyligim ketdi! — derdi u fojiali ovozda. — Biroz pul ham bor edi... “Biroz pul” gapi eshitilishi bilan ish jiddiy tus oldi. Militsiya chaqirildi. Mehmonxona guvillab ketdi. “Shoirning dollari o'g'rilanibdi”, degan gap chaqmoqdek tarqaldi. Tekshiruv boshlandi. Farrosh qiz qo'rqa-pisa gap ochdi: tush payti ovqat yetkazib beradigan talaba yigit kelgan, keyin ariqqa nimadir

oqizib yuborgan. Hammasi shu yerda “ulandi”. Talaba yigitni olib kelishdi. Savollar yomg'irdek yog'ildi. — Shoirning xonasiga kirganmisan? — Yo'q. — Ariqqa qog'oz tashlaganmisan? — Ha, zakaz qog'ozlari edi... “Mana, iqror!” degandek qarashdi. Tushgacha shu qavatda bo'lgan. Ariqqa qog'oz tashlagan. Shoirning qog'ozlari yo'qolgan. Demak... mantiqiy zanjir tayyor! Talaba “zakaz qog'ozini” deb turibdi, ammo hech kimga qiziq emas. Faktlar tayyor, gumon tayyor, aybdor ham tayyor. Qisqasi, yigitcha “o'g'ri”ga aylandi. Shoiridan uzr so'rasdi, izzat-hurmat bilan kuzatishdi. Mehmonxona sha'ni saqlandi. Qonun “ishladi”. Oradan ikki oy o'tdi. Shoir uyiga katta konvert keldi. Vodiya gazetasidan. Xatda shunday deyilgan edi: “Hurmatli ustoz, ikki oy avval redaksiyamizga kirganingizda she'rlaringizni stol ustida unutib qoldiribsiz. Manzilingiz yozilgan ekan. She'rlaringizni chop etdik, mana, asl nusxasi va gazeta.”

Abduvali AHMAD, Termiz tumani

Bugungi kunda ota-onalar tomonidan sifatli ta'limga bo'lgan talab yuqori. Shu o'rinda bir savol tug'iladi — ustozga munosabat qanday? Jamiyatni oldinga boshlaydigan ham, inqirozdan olib chiqadigan ham — ilm. Ilmni esa ustoz beradi.



Demak, ustoz oddiy kasb egasi emas, u kelajak me'mori. Xalqimiz bejiz aytmagan: “Ustoz otangdan ulug'”. Agar farzand uyda ustozga hurmat ruhida tarbiyalanmasa, maktabdagi ta'limning samarasi ham to'liq bo'lmaydi. Chunki ilm faqat ma'lumot emas — u odob bilan kiradi. Ustozga hurmat nimadan boshlanadi? Ustoz oldida odob bilan o'tirish, e'tibor bilan tinglash, uning

nasihatlariga amal qilish, aslo boshqa ish bilan chalg'imaslik shart. Agar ustoz tanbeh bersa-chi? Aynan shu vaziyatda

oddiy ko'rinadi. Ammo aynan shu oddiylik katta natija beradi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) olimlarni ulug'lashga, ustozga tavoze' qilishga buyurganlar. Chunki ilm kibrlangan qalbga emas, kamtar qalbga joylashadi. Ilm va kibr bir joyda turmaydi. Shogird ustoz

ODOB — ENG CHIROYLILIBOS

Chiroyli kiyim insonni go'zal qilmaydi, aksincha, bola odobi bilan go'zal. Agar bola qimmat kiyimda yurib, ammo qo'pol, urushqoq, hurmatsiz bo'lsa — kim uni yaxshi deydi? Aksincha, odobli, mehribon, tirishqoq o'quvchi oddiy kiyimda ham eng hurmatli inson bo'lib ko'rinadi. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, ustoz — daraxt, shogird — meva. Daraxtga hurmat bo'lmasa, meva pishmaydi. Pedagogik faoliyatim davomida har xil muhitda tarbiyalangan o'quvchilarga guvoh bo'ldim, shuni angladimki, ustozlarga hurmatni shakllantirishda o'z muhit va ota-onaning o'rni juda muhim. Shuning uchun farzand tarbiyasida ustozga hurmatni shakllantirish — ota-onaning eng muhim vazifalaridan biridir.

HURMAT — TARBIYANING ILDIZI

oldida kamtar bo'lsa, ilm barakali bo'ladi. Kibr esa — bilimning dushmani. Ustozni hurmat qilmagan jamiyat ilmni ham qadrlamaydi. Ilm qadrsiz bo'lgan joyda esa taraqqiyot bo'lmaydi. Ota-onalarga savol — farzandingiz ustozni haqida qanday gapiradi? Uyda ustoz haqida qanday muhit bor? Agar bola uyda ustozni tanqid qilishni, mensimaslikni ko'rsa — maktabda hurmat qila olmaydi. Zotan, tarbiya uydan boshlanadi.

Zaxiriddin JUMANAZAROV, Muzrabot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab tarix fani o'qituvchisi

Denov tumanida faoliyat yuritayotgan YTT JABBOROV DIYORBEK ABDUSATTOR O'G'LIga tegishli muhr va tamg'a yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

Sherobod tumanidagi “SHEROBOD ADVOKAT JAMOASI” advokatlar hay'ati advokati Alikulov Abdulla Musirovichning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi adliya boshqarmasi boshlig'ining 2026-yil 6-fevraldagi 18-umsonli buyrug'i bilan tugatilganligi **MA'LUM QILINADI.**

MAVSUM BOSHLANDI

2026-yilgi chaqiruv mavsumi boshlanganligi munosabati bilan 1999-2008-yillarda tug'ilgan chaqiruvchilarni tuman va shahar mudofaa ishlari bo'limlariga murojaat etishlari so'raladi.

Viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi

Denov tumanida faoliyat yuritayotgan “SABOXAT XUSNIDDIN QIZI” MCHJga tegishli muhr va tamg'a yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

Denov tumanida faoliyat yuritayotgan “SABOXAT XUSNIDDIN QIZI” MCHJga tegishli muhr va tamg'a yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

“КЕЛАЖАК” ДА КЕМТИК БЎЛМАЙДИ



ISLOHOTLAR SAMARASI

XXI asr — bu shunchaki texnologiyalar asri emas, bu shiddatli ўzgarishlar va kўnikmalar tўknaşuvi davridir. Bugungi kunda dunё iqtisodiyati “bilinglar iqtisodiyati”- dan “kўnikmalar iqtisodiyati”ga ўtmoqda. Anъanaviy taъlim tizimi ўqувchiga faqat statik bilimlarni bersa, bugungi bозor dinamik echimlarni talaб qilmoqda. Ўzbekiston ўzining strategik rivojlanish йўлида айнан шу нуқтани — инсон капиталини трансформация қилишни мақсад қилди. Келажак марказларининг ташкил этилиши — бу шунчаки таълимий лойиҳа эмас, бу миллатнинг рақобатбардошлигини таъминловчи давлат аҳамиятига молик ҳаракатдир.

“БАРКАМОЛ АВЛОД” ЭНДИ ЙЎҚ...

“Баркамол авлод” болалар мактаби ҳамда Республика ўқувчи-ёшлар маркази негизда “Келажак” маркази ташкил этилиб, марказнинг умумий ўрта таълим ташкилотларида вертикал тизим жорий этилади ҳамда ўқувчилар ташаббусларини қўллаб-қувватлаш бўйича мактаб маслаҳатчиси лавозимида ташаббускор кадрлар иш бошлайди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мактабдан ташқари таълим тизимини янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига кўра Бухоро, Наманган, Самарқанд ва Хоразм вилоятлари “Келажак” марказлари ҳузурда болалар сайёҳлик базалари фаолият бошлайди. Келажак марказлари — бу инновацион гоғлар ва амалий кўникмалар синтези содир бўладиган маскан. Лойиҳанинг асосий мақсади — ёшларни фақат олий таълимга тайёрлаш эмас, балки уларни ҳаётга, мустақил қарор қабул қилишга ва замонавий касбларни эгаллашга йўналтиришдир. Бу марказлар чекка ҳудудлардаги истеъдодларни излаб топиш ва уларга пойтахт ёшлари билан бир хил имконият яратишни кўзда тутди.

Мақсад аниқ: ҳар бир ўқувчи ўзининг кучли томонини топиши ва уни даромад келтирувчи соҳага айлантириши лозим.

Шу боис ҳам янги тизим иш берадиган, натижадор тизим сифатида қайд этилмоқда. Келажак марказлари ҳамда мактаб маслаҳатчилиги лавозими учун алоҳида танлов асосида ишга қабул қилиш тизимининг салоҳиятли кадрлар базаси билан тўлиши ҳамда марказнинг номига муносиб бўлишига хизмат қилажак.

ШАРОИТНИНГ “ДОДАСИ” — ЭЪТИБОР ИФОДАСИ

Таъкидлаш ўринлики, таълим муҳити ўқувчининг психологиясига бевосита таъсир қилади. Келажак марказларининг архитектураси ва ички дизайни “Ореп срасе” тамойилига асосланган. Ранглар гаммаси, жиҳозлар, лабораториялар — барчаси ижодкорликни рағбатлантириш учун хизмат қилади. Бу ерда парталар қаторда тизилган зерикарли хоналар йўқ; бунинг ўрнига ҳамкорликда ишлаш (коворкинг) зоналари, креатив студиялар ва юқори технологияли лабораториялар мавжуд. Бундай муҳит болага эркинлик ҳиссини беради, эркинлик эса янги гоғлар тугилишининг асосий шартидир.

— Марказ фаолият бошлаши эскича тизимдан воз кечи, янги таълим ва имкониятлар учун сафарбар этилиш заруратини талаб этади, — дейди Вилоят “Келажак” маркази раҳбари Фирузжон Қодиров. — Шу боис мактаб маслаҳатчилиги учун ариза топширган 685 нафар аризадан 485 нафари ҳам айни моҳиятни англай олганлигини кузатиш мумкин. Тест сновларидан ўтган 392 нафар номзод билан суҳбат қилинди. Мактаб маслаҳатчилари келажак авлодни “уйғотадиган” куч, чексиз имкониятлардан боғабар этувчи информациялар манбайи, ақлан етук, маънан мукаммал, ташаббускор ва танқидий фикрлай оладиган кадр бўлмоғи лозим.

Мактаб маслаҳатчилари ўқувчилардаги коммуникатив ва ташкилотчилик қобилиятини мустаҳкамлаш, уларда медиа ва рақамли саводхонликни шакллантиришга кўмаклашади. Мактаб маслаҳатчиси лавозим маоши умумий ўрта таълим ташкилоти директори ўринбосари лавозим

маошига тенглаштирилади. Менежерлик сертификати эга бўлган мактаб маслаҳатчилари 2026-йил 1-сентябрдан бошлаб сертификатнинг амал қилиш муддати давомида лавозим маошига тегишлича ҳар ойлик 30 фоиз микдорида қўшимча устамалар тўланади.

Мактабларда “Ерп. portfolio” платформи яратилади. Бунда 1-11-синф ўқувчиларининг портфолио базаси шакллантирилади. Ушбу платформа мактаб маслаҳатчилари томонидан юритилади ҳамда 2028/2029-ўқув йилидан шаҳодатномада қайд этилади.

БИЛИМ ВА КЎНИКМА МУВОЗАНАТИ

Замонавий мутахассис учун фақат дастурлашни билиш (Hard skills) етарли эмас. У жамоада ишлашни, бошқалар билан мулоқот қилишни ва ўз лойиҳасини тақдим эта олишни (Soft skills) ҳам билиши шарт.

Hard skills: Робототехника, график дизайн, хорижий тиллар, CMM.

Soft skills: Нутқ маданияти, стрессга чидамлилиқ, вақтни бошқариш (time management), етакчилиқ.

“Келажак” марказлари ушбу икки йўналишни бир нуқтада бирлаштиради ва ўқувчини ҳар томонлама пишган “универсал мутахассис” сифатида тайёрлайди.

— Жорий йилдан “Келажак тадбиркори” дастури ишга туширилади ва ёш тадбиркорларга етти йил муддатга 15 фоизли кредит ажратили бошланади, — дейди марказнинг медиа ва ахборотлар билан ишлаш бўлими бошлиғи Дурдона Эшмуродова. — Хусусан ўзини банд қилган ёшларга гаровсиз 20 миллион сўмгача, тадбиркорлик кўникмасига эга бўлиб, ўз бизнесини бошлаётганларга 300 миллион сўмгача, фаолият ташкилоти директори бўлган ёш тадбир-

корларга 2 миллиард сўмгача, камида беш нафар битирувчини ишга олган тадбиркорларга эса 10 миллиард сўмгача кредит берилади.

Шунингдек, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги билан биргаликда “Менинг биринчи касбим” дастури ҳам шарт олади. Бунда стажировка дастури асосида олийгоҳ битирувчилари ўртасида танлов ўтказилиб, уларга 2 миллион сўмгача стипендия тўлаш йўлга қўйилади. Шу боис, ҳар бир ҳудудда тадбиркорликка ўқитиш, гоғани бизнесга айлантириш, бухгалтерия, банк, маркетинг, ички ва ташқи бозорларга чиқиш билан боғлиқ комплекс хизматларни курсатадиган “Ёшлар бизнес инкубатори” ишга туширилади.

— Келажак марказларининг пойдевори — рақамли технологиялар, — дейди Дурдона Эшмуродова. — Бу ерда болалар сунъий интеллект, “Big Data” ва киберхавфсизлик каби тушунчалар билан танишадилар. Ахборот технологиялари дарсларида ўқувчилар ўзларининг илк мобил иловаларини яратишади, моделлар ясашади. Бу нафақат уларни технология билан таништиради, балки уларда “мен яратувчиман” деган ишончнинг уйғотилади.

Ўзбекистоннинг минтақавий IT-хабга айлантириш йўлидаги асосий куч ҳам айнан мана шу ёшлар бўлади. Шундай экан, “Келажак” марказлари зиммасида интеллектуал салоҳияти юксак ёшлар шаклланиши кутилаётгани табиий.

ШУНЧАКИ ДАРС ЭМАС, ҲАЁТ МАКТАБИ

“Келажак соати” дарслари ўқув дастурларига нафас олиб қирди. Бу дарсларда “икки” баҳо олишдан кўрқиб йўқ, чунки бу ерда хато қилиш — ўрганишининг бир қисми ҳисобланади. Дарслар интерфаол тарзда, очик мулоқот ва баҳс-мунозара-

лар асосида ўтилади. Ўқувчи ўқитувчининг айтганини кўр-кўрона ёдламайди, балки “Нима учун?”, “Қандай қилиб?” ва “Бунга қерда қўлламан?” деган саволларга жавоб излайди. Бу дарслар ўқувчининг шахсий “мен”ини шакллантиришга қаратилган билан аҳамиятли.

— Синф соати ҳафтадан ҳафта кунини ўтилади, — дейди термизлик Шохруҳ Шомуродов. — Устозимиз ҳам ҳафта давомида йиғилиб қолган масалалар, биз келтириб чиқарган муаммолар билан 45 дақиқани “йўқ қиларди”. Хозир эса “Келажак соати” дарси қизиқarli ташкил этилади. Мавзулар ҳам бизнинг келажимиз учун аҳамиятли. Яқинда яхшилик ҳақида мавзу ўтилади. Аслида мана шу дарснинг ўзидек яхшилик. Ўқитувчимиз ўзгарди, дарс ўтиш услуби даққидан сифатли машғулотга айланди. Ҳар сафар нимадир янгилик билан келади. Қизиқ видеолар кўрсатилади. Уйлаб қолдим, мен нима яхшилик қилаяман экан?!

УСТОЗЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ЯНГИ АВЛОД МУРАББИЙЛАРИ

Келажак марказларида дарс берувчи педагоглар энди фақат “муаллим” эмас, улар “фасилитатор” ва “ментор”лардир. Улар ўқувчига юқоридан паства эмас, тенг шерик сифатида қарайдилар.

— Менторнинг вазифаси — тайёр жавобни бериш эмас, балки жавобга олиб борадиган йўлни кўрсатишдир, — дейди педагог Шухратжон Абдулаков. — Ушбу мурабийлар мунтазам равишда халқаро тренинглардан ўтадилар ва ўз устида ишлашдан тўхтамайдилар. Чунки замонавий болага дарс бериш учун ўқитувчи камида бир қадам олдинда юриши керак.

Келажак марказлари ва “Келажак соати” — бу бугун экилган интеллектуал ниҳолдир. Унинг ме-

васи эртага юртимиз иқтисодийтини кўтарадиган, илм-фанини ривожлантирадиган ва халқаро майдонда байроғимизни баланд кўтарадиган ватанпарвар ва билимли ёшлар бўлади. Биз бугун таълимга сармоя қилиб, аслида эртанги кунимизнинг хавфсизлиги ва фаровонлигини сотиб олаёلمиз. Зеро, буюк келажак фақат замонавий мактаб парталарида тугилади.

ПСИХОЛОГИК ЁНДАШУВ: ЎҚУВЧИ ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Ҳар бир бола — алоҳида олам. Келажак марказлари тизимида психологик қўллаб-қувватлаш муҳим ўрин тутади. Ўсмирлик давридаги ўзгаришлар, ўзига ишонсизлик ёки касб танлашдаги иккилановлар “Келажак соати”даги психологик тренинглар орқали ечилади. Болаларга эмоционал интеллектни бошқариш ўргатилади. Бу эса уларнинг келажакда нафақат яхши мутахассис, балки руҳий соғлом ва бахтли инсон бўлиб етишишини таъминлайди.

— “Турон” мактаб театри” танлови мазкур йилдан бошлаб “Келажак” марказлари қошида ташкил этилиши бежиз эмас, — дейди вилоят “Келажак” маркази маданият ва санъат тадбирларини ташкиллаштириш бўлими бошлиғи Нигина Худойбердиева. — Зеро, марказларимизда ёшларнинг иқтидорини кашф этиш баробарида уларни тарбиялайдиган муҳит бор. Шу пайтгача танлов мазлум бир мудатда ўтказиладиган аънанавий танлов эди. Эндиликда мактабларда театр тўғараклари ҳам фаолият юритади ҳамда асл иқтидорлар мактабданок сайқалланади.

ХАЛҚАРО ТАЖРИБА ВА МИЛЛИЙ МОДЕЛ: ДУНЁ БИЛАН БЎЛАШИШ

“Келажак” марказлари лойиҳаси доирасида Жанубий Корея, Сингапур, Финляндия ва АҚШ каби давлатларнинг

энг илғор таълим моделлари ўрганилган. Бироқ бу кўр-кўрона кўчириш эмас. Келажак марказлари миллий қадриятларимиз ва менталитетимизга мослаштирилган. Бизнинг ўқувчи ўз миллий ўзлигини англаган ҳолда жаҳон стандартлари даражасида билим олади. Бу эса “Миллий руҳда замонавий билим” деган тамойилнинг амалдаги ифодасидир.

— Мактаб маслаҳатчилари мактабларимиз учун зарурат эди, — дейди Термиз туманидаги 31-сонли умумий ўрта таълим мактабининг маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосари Н.Жўраева. — Ахир, боланинг қизиқликлари, унинг иқтидори, соғлиғи, фанларини ўрганишдаги бўшлиқлар билан ишлаш тизими ҳали тўлиқ шаклланган эмас. Мактаб маслаҳатчилари болаларга имкониятлар эшигини очувчи маёқ бўлади.

Таъкидлаш ўринлики, мамлакатимиз ёшлар сиёсати борасида янги ислохотларни изчиллик билан жорий этмоқда. Эндиликда ҳар ҳафтанинг пайшанба кунини вазирлик, идора ва ҳокимликларда “Ёшлар кунини” бўлиши белгиланди.

Шу кунини соҳага масъул раҳбарлар маҳалла, мактаб ва техникумларга бориб, ёшларни эшитиш ва муаммосини хал қилади. Шунингдек, энг яхши томорқачи, фермер, санаотчи, стартапчи, ижодкор, маънавият ва бошқа соҳалардаги ёшлар учун қизиқarli мавзуларда танловлар ва ярмакарлар ўтказилади.

Келажак ёшлар қўлида, ёшлар билан ишловчи тузилма эса пишиқ ва пухта иш тизими эди. Шундай экан, эндиликда тизимда кемтик бўлмайди, ёшларнинг келажига кам-кўстисиз бўлажак!

Хуршид КАРШИЕВ

| | | | | | | | | | |
|--|--|--|---|---|--|--|---|--|--|
| <p>SURXON TONGI va ЗАРЯ СУРХАНА gazetalari tahririyati</p> | <p>MUASSISLAR: Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi</p> | <p>TAHRIRHAY'ATI Abduraim CHORIYEV (hay'at raisi) Ilhom SAPAROV, Ibrohim YOQUBOV, Murodbek DAVLATOV, Iqroriddin AYNIDDINOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV</p> | <p>Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.</p> | <p>BOSH MUHARRIR Salohiddin NORQOBILOV MAS'UL MUHARRIR Sayyora ALLAYEVA NAVBATCHI MUHARRIR Xurshid KARSHIYEV SAHIFALOVCHI DIZAYNER Dildora VOHIDOVA</p> | <p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p> | <p>TELEFONLAR: 76 224-23-85, 76 224-23-80, 76 224-23-87</p> | <p>Qog'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq Nashr indeksi: 6 500 Bosishga topshirildi — 09:00 Bosildi — 11:00 Adadi 6 790 nusxa. Buyurtma G-</p> | <p>MANZILIMIZ: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p> <p>BOSMAXONA MANZILI: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p> | <p>Gazeta “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.</p> |
|--|--|--|---|---|--|--|---|--|--|